



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
SURXONDARYO VILOYATI HOKIMINING
Q A R O R I

Termiz shahri, At-Termiziy ko‘chasi 1-uy. 190100, tel.: (+99876) 224-00-15, surxon@exat.uz, gov@sdv.uz

2022 - yil 12 - yanvar

7-8-0-Q/22

Surxondaryo viloyati hokimligi

**Sho‘rchi tumani “Saksonkapa” mahallasi hududidan “Maktabgacha ta’lim tashkiloti”
binosi qurilishi uchun yer maydoni ajratish to‘g‘risida**

O‘zbekiston Respublikasi Yer kodeksining 5-moddasiga va Vazirlar Mahkamasining “Yer uchastkalarini davlat va jamoat ehtiyojlari uchun doimiy foydalanishga ajratishning ma’muriy reglamentini tasdiqlash to‘g‘risida” 2021-yil 27-avgustdagi 543-son qaroriga asosan hamda “YERELEKTRON” AATga Y-1722226/B-13143 ID raqami bilan kiritilgan yer uchastkasiga tegishli tashkilotlar tomonidan berilgan xulosalarni inobatga olib,

QAROR QILAMAN:

1. Sho‘rchi tumani “Saksonkapa” mahallasi hududidan tuman hokimligi zaxira yer fondidan qishloq xo‘jalik xaritasining 379q-dala konturidagi 0,3 gektar qishloq xo‘jaligida foydalanilmaydigan yer maydoni yangi zamonaviy tipdagi “Maktabgacha ta’lim tashkiloti” binosi qurilishi uchun tuman Maktabgacha ta’lim bo‘limiga doimiy foydalanish huquqi bilan ajratilsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi huzuridagi Kadastr agentligi Surxondaryo viloyati boshqarmasi (M.Abduraxmanov)ga ajratib berilgan yer maydonidan samarali va maqsadli foydalanilishini doimiy nazorat qilib borish yuklatilsin.

3. O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi huzuridagi Kadastrlar palatasi Surxondaryo viloyati boshqarmasi (S.Shaymardanov) yer chegaralarini joyida (naturada) belgilashni amalga oshirsin va yer hisobotiga tegishli o‘zgartirish kiritish hamda yer uchastkasiga bo‘lgan huquqning davlat ro‘yxatidan o‘tkazilishini ta’minlasin.

4. Viloyat Qurilish bosh boshqarmasi (K.Eshmatov) qonunchilikda belgilangan tartibda qurilish ishlarini loyiha-smeta hujjatlariga muvofiqligini monitoring qilib borsin.

5. Mazkur qaror bir kun muddatda viloyat hokimligining rasmiy veb-saytida (surxondaryo.uz) e’lon qilinsin.

6. Ushbu qarorning bajarilishini nazorat qilish viloyat hokimining o‘rinbosari A.Xidirov

zimmasiga yuklansin.

**Viloyat hokimining birinchi
o‘rinbosari**



Mamanov F. B.